SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SALIYEVA ZIROAT ZOKIROVNA

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING YOZUV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MULTIMODAL KOMPOZITSIYA INTEGRATSIYASIDAN FOYDALANISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 374.72+811.111

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation for Doctor of Philosophy (PhD)
on pedagogical science**

Saliyeva Ziroat Zokirovna
Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda multimodal kompozitsiya integratsiyasidan foydalanish..... 5

Салиева Зироат Зокировна
Использование интеграции мультимодальной композиции в совершенствовании письменной компетенции будущих учителей английского языка..... 27

Salieva Ziroat Zokirovna
Enhancing writing competence of future English teachers through multimodal composition integration..... 53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 58

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SALIYEVA ZIROAT ZOKIROVNA

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING YOZUV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MULTIMODAL KOMPOZITSIYA INTEGRATSIYASIDAN FOYDALANISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped7094 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdchti.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Amriddinova Nazira Shamsiddinovna** filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Rasmiy opponentlar:	**Maxmudova Muyassar Maxmudovna** pedagogika fanlari doktori, professor
	Narzikulova Dilnoza Xashimjonovna pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Guliston davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____”_____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____”._____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “____” _____ dagi №____ raqamli reyestr bayonnomasi).

U.U. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.E. Rustamova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

A.Y. Nurmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida oliy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirish, ularni akademik va kasbiy muloqotning xalqaro talablariga tayyorlash hamda ta’lim jarayonini real yozma kommunikatsiya amaliyotiga yaqinlashtirish pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq amaliyotda multimodal topshiriqlarni talabalarning til bilish darajasi, kasbiy yo‘nalishi va kognitiv salohiyatiga mos tanlash, ularni dars maqsad va mazmuniga integratsiyalash, yozuv jarayonining bosqichlariga muvofiq mashq va vazifalar tizimini ishlab chiqish hamda ularning ta’limiy samaradorligini baholash mexanizmlari yetarli darajada takomillashtirilmaganligi yozuv o‘qitish sifatiga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozuv kompetensiyasini multimodal kompozitsiya integratsiyasi asosida takomillashtirishning lingvodidaktik modeli, metodik ta'minoti va diagnostik-baholash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda jahon ilmiy amaliyotida yozuv kompetensiyasini multimodal yondashuv asosida rivojlantirish, raqamli pedagogika, media savodxonlik, kognitiv psixolingvistika hamda ijodiy raqamli mahsulot yaratish texnologiyalari asosida yozma nutqni o‘qitishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Kembrij, Oksford, Garvard universitetlarida, shuningdek AQSh, Buyuk Britaniya va Avstraliya oliy ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilayotgan loyihalarda bo‘lajak chet tili o‘qituvchilariga yozuv kompetensiyasini o‘rgatishda ularning kognitiv-potensial jihatlari, metakognitiv strategiyalari va individual xususiyatlarini hisobga olish, yozuvni multimodal kommunikatsiya vositasi sifatida rivojlantirish, mustaqil ta’lim va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor ilmiy yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda. Kelgusida generativ sun'iy intellekt, adaptiv o‘qitish vositalari va immersiv raqamli muhitlar asosida multimodal yozuv metodikasini takomillashtirish, yozma faoliyatni diagnostik baholash tizimlarini ishlab chiqish hamda ularning lingvodidaktik samaradorligini ilmiy asoslash dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, chet tillarini o‘qitish sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. “Yaqin kelajakdagi eng muhim vazifalardan biri yoshlarni ma'naviy boy, axloqiy yetuk, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mustaqil fikrlovchi, barkamol shaxslar qilib tarbiyalashdan iborat”[1]. Shunga muvofiq, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda multimodal kompozitsiya integratsiyasidan didaktik maqsadlarga muvofiq foydalanish metodikasini ishlab chiqish, raqamli vositalar asosida ularning yozuv va texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish, o‘quv faoliyatini faollashtirish, shuningdek, yozuv kompetensiyasi

[1] Prezident Shavkat Mirziyoyevning sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi, 2025-yil 21-oktabr**.** Prezident.uz – rasmiy xabar (president.uz)

rivojini baholashning diagnostik tizimini takomillashtirish va uni ta’lim amaliyotiga integratsiyalash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta’lim va tarbiya hamda ilm-fanni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va axborot texnologiyalari sohasi bilan integratsiyalashuvini ta'minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi masalalari bo‘yicha J.J.Jalolov, I.Y.Yoqubov, G.R.Bakiyeva, M.A.Irisqulov, L.T.Axmedova, U.B.Azizov, F.Sh.Alimov, I.M.Tuxtasinov, A.A.Abduqodirov, D.B.Agzamova, U.U.Jumanazarov, A.E.Rustamova, N.N.Normatova, A.B.Musoyeva va F.P.Davronova[2] kabi olimlar innovatsion g‘oyalari va empirik kuzatuvlariga asoslangan ilmiy izlanishlar olib borishgan.

[2] Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasi: chet tillari oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik.: O’qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi – Toshkent, 2012.– B. 432.; Yo‘qubov I.Y. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2019. – B. 320.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2013. – 200 с.; Alimov F. Sh. Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini shakllantirish. – Toshkent, 2018. – 156 b.; Azizov U.B., Chiesa D.L. Reconceptualizing Language Teaching: An In-Service Teacher Educational Course in Uzbekistan. – Tashkent, 2018. – P.237.; Bakiyeva G.R. Talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish. Toshkent: Akademnashr, 2017. – 152 b.; Irisqulov M.A. Ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy usullari. Toshkent: O‘qituvchi, 2014. – 188 b.;

Respublikamizda yozuv kompetensiyani rivojlantirishda qo‘llanadigan metodlar esa U.Xodjaniyazova, O.Hoshimov, B.Xodjayev va F.Alimov[3] ishlarida izohlab berilgan.

Mustaqil hamdo‘stlik mamlakatlari tadqiqotlariga e’tibor qaratilsa, N.D.Galskova, Ye.N.Solovova, A.N.Shukin, O.Yu.Digtyar, T.V.Xil’chenko[4] kabi olimlar yozuv kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha o‘z ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Xorijiy olimlardan ta’lim jarayonida multimedia va multimodal yondashuvlar bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilarni alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Xususan, Amerika Qo‘shma Shtatlari ushbu sohaning yetakchi markazi hisoblanib, uning shakllanishiga R.Mayer, G.Kres, T.Van Leven va K.Jevit[5] olimlarining fundamental hissasi sezilarlidir.

Yuqorida keltirilgan va boshqa mualliflarning tadqiqotlari, shubhasiz, nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda, ta’kidlashimiz joizki, ingliz tilini o‘qitishda multimodal kompozitsiya integratsiyasiga oid ayrim ilmiy izlanishlar mavjud bo‘lsa-da, aynan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirish masalasi ushbu metod asosida hali yetarlicha chuqur o‘rganilmasdan qolmoqda. Demak, mazkur yo‘nalishdagi masala va muammolar ushbu dissertatsiya ishimizning dolzarbligini asoslashda dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy ishlari rejalariga muvofiq “Filologik oliy ta’lim tashkilotlarida chet tilini integrallashuv orqali o‘qitishda kadrlar tayyorlashning

---

Тухтасинов И.М. Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков. Дис. док. пед. наук. (DSc). – Ташкент, 2018. – 203 с.; Abduqodirov A.A. Ta’limning innovatsion texnologiyalari. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 б.; Agzamova D. B. English teaching methodology. Manual. O‘quv qo‘llanma. – T.: Barkamol fayz mediya, 2016. – 9 b.; Jumanazarov U.U. Ta’limni raqamlashtirish muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish: Ped.fan.dok.(DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 89 b.; Rustamova A.E. Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilni o‘qitishda talaffuzni shakllantirish va rivojlantirish: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. – Samarqand, 2021. – 136 b.; Normatova N.N. Ingliz tilini o‘qitishda iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish. – Termez, 2021. – 44 b.; Musoyeva A.B. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini CEFR orqali shakllantirish va rivojlantirish: Avtoref. dis. … ped. fan. dok. – Samarqand, 2022. – 58 b.; Davronova F.P. Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarning ingliz tiliga tezkor o‘qitishning pedagogik asoslarini takomillashtirish: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 59 b.

[3] Ходжаниязова У.К. Формирование иноязычной письменной компетенции у учащихся уровня А2 республики Каракалпакстан. – Нукус, 2022. – 12 с.; Hoshimov O. O‘qituvchilarning yozuv ko‘nikmalarini o‘qitish metodikasidagi kasbiy kompetentligini oshirish masalalari. Pedagogik mahorat, 2019. – 23-28 b.; Xodjayev B. Ingliz tilida yozma muloqotni o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan, 2016. – 210 b.; Alimov F. Sh. Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini shakllantirish. – Toshkent, 2018. – 156 b.

[4] Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. – Москва: Академия, 2006. – 336 с.; Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: Продвинутый курс. – Москва: АСТ-Пресс, 2008. – 165 с.; Щукин А.Н. Методика преподавания иностранных языков. – Москва: Высшая школа, 2006. – 288 с.; Дигтяр О.Ю. Современные подходы к обучению иностранным языкам: Коммуникативно-компетентностный аспект. – Новосибирск, 2015. – 120 с.; Хильченко Т.В. Инновационные технологии в обучении иностранным языкам. – Санкт-Петербург: СПбГУ, 2018. – 98 с.

[5] Mayer R.E. Multimedia learning. Cambridge University Press, 2009. – 320 p.; Kress G. Multimodality: Challenges to thinking about language. TESOL Quarterly, 2000. – 337-340 p.; Jewitt C. Multimodality and literacy in school classrooms. Review of Research in Education, 32(1). 2008. – 241-267 p.

filologik hamda metodik asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarda yozuv kompetensiyasini takomillashtirish uchun “multimodal kompozitsiya integratsiyasi”dan foydalanish samaradorligini asoslash va 3T’s+Reflection model asosida mashq va vazifalar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning yozuv kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammo va qiyinchiliklarni tahlil qilib, o‘rganilayotgan tadqiqot doirasida o‘quv dasturlari, sillabuslar va darsliklarni multimodal yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilish;

ingliz tilida yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda multimodal kompozitsiya integratsiyasining (matn, video, audio va infografik elementlarni uyg‘unlashtirish) samaradorligini tahlil qilish va uning kognitiv-potensial jihatlarini (ishchi xotira, metakognitiv strategiyalar, mantiqiy fikrlash) aniqlash;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozuv kompetensiyasi va multimodal savodxonligini shakllantirishda zamonaviy raqamli vositalar (Canva, Piktochart, Adobe Premiere, CapCut) asosida ishlab chiqilgan interfaol pedagogik texnologiyalarning o‘rni va samaradorligini o‘rganish;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan “3Ts+Reflection” modelini ishlab chiqish hamda multimodal kompozitsiya integratsiyasga asoslangan mashq va vazifalar tizimini yaratish va auditoriya mashg‘ulotlariga tatbiq etish.

Tadqiqotning obyekti ikkinchi kurs bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozuv kompetensiyasini multimodal kompozitsiya integratsiyasi orqali takomillashtirish jarayoni bo‘lib, tajriba-sinov ishlariga Samarqand davlat chet tillar instituti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, Navoiy davlat pedagogika institutining 266 nafar talabasi jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini ikkinchi kurs bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozuv kompetensiyasini multimodal kompozitsiya integratsiyasi orqali takomillashtirishning mazmuni, usullari va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ishning maqsad va vazifalariga erishish uchun quyidagi metodlar majmui qo‘llanildi: nazariy (tahliliy, ilmiy-metodik manbalarni o‘rgaranish va qiyosiy tahlil qilish), diagnostik (suhbat, test, kuzatish, so‘rovnoma), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik-statistik (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash va grafik tasvirlash).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning yozuv kompetensiyasini rivojlantiruvchi multimodal-kompozitsion metodik model ishlab chiqilgan bo‘lib, unda vizual-verbal, raqamli hikoyaviy, janr asosli va metakognitiv strategiyalarning integratsiyalashuvi talabalarning kognitiv-metakognitiv ko‘nikmalar kompleksini, xususan, g‘oyaviy-kompozitsion tashkillashtirish va retrospektiv-prospektiv nazorat ko‘nikmalarini rivojlantirishi isbotlangan;

talabaning yozuv kompetensiyasini uzluksiz jarayon sifatida tashkil etishni ta’minlovchi „3Ts+Reflection“ innovatsion modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, unda

yozuvgacha, yozuv jarayonida va yozuvdan keyingi bosqichlarning bir-biriga uzviy o‘tish dinamikasi – talaba har bosqichda oldingisiga qaytib, uni qayta baholab, yangi sifat darajasida oldinga siljishi – talabaning fikrlash faolligini kuchaytiruvchi hamda matnni bir martalik chiziqli yozuvdan spiralsimon qayta ishlash jarayoniga aylantiruvchi didaktik mexanizm sifatida nazariy-eksperimental jihatdan asoslangan;

texnologik yozuv kompetensiyasini rivojlantiruvchi uch yo‘nalishli multimodal topshiriqlar tizimi ishlab chiqilib, mazkur tizimning amaliy-ijodiy komponentida video-esse yaratish jarayonida matnni izchil hikoya ko‘rinishidan video formatga o‘tkazish orqali texno-yozuv ko‘nikmalari, xususan, ssenariy yozish, kadr-matn muvofiqligini ta’minlash va montaj orqali mantiqiy izchillikni saqlash malakalari integrativ rivojlanishi amaliy tajriba-sinov natijalari asosida dalillangan;

talabalarning yozma nutq kompetensiyasini baholashning mazmun, struktura, til va multimodal ijodkorlik ko‘rsatkichlaridan iborat to‘rt komponentli baholash tizimi ishlab chiqilib, unda talaba tomonidan yaratilgan raqamli mahsulotning mazmuniy izchilligi, texnik sifati va lisoniy to‘g‘riligini yagona ballda jamlovchi integral baholash modeli – ya’ni har bir komponentni alohida analitik mezonlar orqali baholab, so‘ngra ularni yaxlit holistik ko‘rsatkichga birlashtiruvchi ikki bosqichli mexanizm orqali holistik va analitik baholash tamoyillarining uyg‘unlashtirilishi nazariy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan “3Ts+Reflection” modeli asosidagi multimodal mashq va vazifalar tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, u tayyorlov, takomillashtirish, tahlil va refleksiya bosqichlarini o‘z ichiga oladi;

oliy ta’lim tashkilotlarida (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Jizzax filiali, Navoiy davlat pedagogika instituti, Samarqand davlat chet tillar instituti) yozuv kompetensiyasini takomillashtirish jarayoniga multimodal kompozitsiya integratsiyasiga asoslangan o‘quv materiallari (vlog(video-esse), foto-esse, podkast, infografika topshiriqlari) joriy etilgan va ularning samaradorligi tajriba-sinov orqali tasdiqlangan;

ingliz tilidagi yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda multimodal kompozitsiya integratsiyasini qo‘llash bo‘yicha metodik ishlanmalar (mashq va vazifalar tasnifi, baholash me’zonlari, o‘z-o‘zini baholash tizimi, refleksiv savollar tizimi) ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligini matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati multimodal kompozitsiya integratsiyasining kognitiv-potensial jihatlari aniqlanib, uning talabalarning ishchi xotirasi, metakognitiv strategiyalari va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi empirik tarzda isbotlangan. Shu bilan birga, “3Ts+Reflection” innovatsion modeli ishlab chiqilgan

bo‘lib, ushbu model tayyorlov, takomillashtirish, tahlil va refleksiya bosqichlari orqali talabalarning tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini kompleks rivojlantirish imkonini berishi isbotlangan, hamda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni qayta idrok etilib, ular nafaqat texnik vosita, balki kognitiv jarayonlarni faollashtiruvchi muhim pedagogik vosita ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan “3Ts+Reflection” modeli asosidagi multimodal mashq va vazifalar tizimi, multimodal topshiriqlar banki (vlog(video-esse), foto-esse, podkast, infografika), 5 ballik baholash me’zonlari asosida o‘z-o‘zini baholash tizimi (refleksiv jurnal, baholash varaqasi, peer review rubrikasi)ning yaratilganligi bilan belgilanadi. Mazkur metodik materiallar oliy ta’lim tashkilotlarida yozuv kompetensiyasini takomillashtirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda, o‘quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratishda hamda o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarida keng qo‘llanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta’lim tashkilotlari ikkinchi kurs bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozuv kompetensiyalarini multimodal kompozitsiya integratsiyasi vositasida takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

talabalarning yozuv kompetensiyasini rivojlantiruvchi multimodal-kompozitsion metodik model ishlab chiqilgan bo‘lib, unda vizual-verbal, raqamli hikoyaviy, janr asosli va metakognitiv strategiyalarning integratsiyalashuvi talabalarning kognitiv-metakognitiv ko‘nikmalar kompleksini, xususan, g‘oyaviy-kompozitsion tashkillashtirish va retrospektiv-prospektiv nazorat ko‘nikmalarini rivojlantirishi isbotlanganligi haqidagi xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21-GR 3181 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 5-martdagi 04/782-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning mavzuni chuqur tushunish, g‘oyalarni tartibga solish va mantiqiy ifodalash qobiliyatlari shakllantirilgan;

talabaning yozuv kompetensiyasini uzluksiz jarayon sifatida tashkil etishni ta’minlovchi „3Ts+Reflection“ innovatsion modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, unda yozuvgacha, yozuv jarayonida va yozuvdan keyingi bosqichlarning bir-biriga uzviy o‘tish dinamikasi – talaba har bosqichda oldingisiga qaytib, uni qayta baholab, yangi sifat darajasida oldinga siljishi – talabaning fikrlash faolligini kuchaytiruvchi hamda matnni bir martalik chiziqli yozuvdan spiralsimon qayta ishlash jarayoniga aylantiruvchi didaktik mexanizm sifatida nazariy-eksperimental jihatdan asoslanganligi haqidagi taklif va xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022-2024 yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” amaliy loyihasi doirasida xalqaro loyihani amalga oshirishda va uning o‘quv jarayonida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 4-fevraldagi 335/02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlari rivojlantirilgan;

texnologik yozuv kompetensiyasini rivojlantiruvchi uch yo‘nalishli multimodal topshiriqlar tizimi ishlab chiqilib, mazkur tizimning amaliy-ijodiy komponentida video-esse yaratish jarayonida matnni izchil hikoya ko‘rinishidan video formatga o‘tkazish orqali texno-yozuv ko‘nikmalari, xususan, ssenariy yozish, kadr-matn muvofiqligini ta’minlash va montaj orqali mantiqiy izchillikni saqlash malakalari integrativ rivojlanishi amaliy tajriba-sinov natijalari asosida dalillanganligi xususidagi xulosalardan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ 585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP “CLASS: Development of the Interdisciplinary Master Program on Computational Linguistics at Central Asian Universities” loyihasi doirasida foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 7-fevraldagi 359/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning mantiqiy fikrlash, dalillar keltirish, asoslangan xulosalar chiqarish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalari asoslangan yozuv kompetensiyasini izchil rivojlantirish shakllari, vositalari va usullari asoslab berilgan;

talabalarning yozma nutq kompetensiyasini baholashning mazmun, struktura, til va multimodal ijodkorlik ko‘rsatkichlaridan iborat to‘rt komponentli baholash tizimi ishlab chiqilib, unda talaba tomonidan yaratilgan raqamli mahsulotning mazmuniy izchilligi, texnik sifati va lisoniy to‘g‘riligini yagona ballda jamlovchi integral baholash modeli – ya’ni har bir komponentni alohida analitik mezonlar orqali baholab, so‘ngra ularni yaxlit holistik ko‘rsatkichga birlashtiruvchi ikki bosqichli mexanizm orqali holistik va analitik baholash tamoyillarining uyg‘unlashtirilishi nazariy asoslanganligi haqidagi fikr-mulohazalardan Samarkand viloyati teleradiokompaniyasining “Fayzli oqshom” radiosi dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Samarkand viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 21-apreldagi 01-07/164-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu tizimning talabalarning yozuv kompetensiyasi hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta respublika hamda 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, 2 ta maqola xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Tadqiqotning umumiy hajmi 117 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismda mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilishi darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga tatbiq etilishi, tadqiqot

natijalarining nashr qilinganligi, ishning tuzilishi haqida ma’lumotlar taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning “Bo‘lajak mutaxassis talabalarning ingliz tilidagi yozuv kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida yozuv kompetensiyasining lingvodidaktik va psixolingvistik asoslari, o‘qitishning metodik masalalari hamda multimodal kompozitsiya integratsiyasining nazariy aspektlari yoritilgan. Globalizatsiya sharoitida ingliz tili ilmiy hamkorlik, biznes aloqalari, madaniy va siyosiy munosabatlarni o‘rnatishda muhim vosita hisoblanadi. Yozuv kompetensiyasi xorijiy tilni o‘zlashtirishning progressiv bosqichini ifodalab, tinglash, gapirish va o‘qish kompetensiyalaridan keyin rivojlanadi. Ingliz tilida yozuv kompetensiyasining yuqori darajada rivojlanganligi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida talabalarning akademik yutuqlariga va kelajakdagi professional faoliyatiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Yozuv kompetensiyasining mohiyati tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilgan. A.Braun fikricha, yozma ish talabaning bilim va ko‘nikmalarini namoyish etish vositasi sifatida qaraladi[6]. H.Tarigan esa yozuvni samarali va aniq ifoda vositasi hamda bilvosita kommunikatsiya shakli sifatida ta’riflaydi[7]. D.Nunan yozuv jarayonini jismoniy va kognitiv jihatlarga ajratadi: jismoniy jihat matnni yaratishning fizik harakati bo‘lsa, kognitiv jihat g‘oyalarni tanlash, ularni bayonot va bandlarga joylashtirish, maqsadli auditoriya uchun tushunarli bo‘lishini ta'minlash kabi intellektual faoliyatni o‘z ichiga oladi[8]. J.Jalolov ta’kidlashicha, o‘qish va yozuv yozma nutqning ikki, bir-birini to‘ldiruvchi tomonidir: o‘qish jarayonida yozma material o‘zlashtirilsa, yozish jarayonida o‘qish orqali egallangan fikrlar yozma ifodalanadi[9].

Yozuv kompetensiyasini shakllantirishda lingvodidaktik tamoyillar muhim rol o‘ynaydi. Lingvodidaktika til o‘qitishni lingvistik nazariya bilan bog‘lovchi amaliy fan sifatida yozuv kompetensiyasini o‘qitishda kognitiv va bosqichma-bosqich yondashuv, kommunikativ va kontekstuallik, xatolarni tahlil qilish va to‘g‘rilash, baholashning haqiqiyligi va o‘quv dasturining izchilligi tamoyillarga asoslanishni ta’minlaydi. Psixolingvistika yozuv jarayonining ikki muhim bosqichi – rejalashtirish va tahrirlashda faol ishtirok etadigan kognitiv mexanizmlarni o‘rganadi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozuv kompetensiyalarini takomillashtirishda kognitiv manbalar (ishchi xotira, uzoq muddatli xotira), yuqori darajadagi kognitiv vazifalar (rejalashtirish, tormozlash, kognitiv moslashuvchanlik), tilni qayta ishlash mexanizmlari, motivatsiya va affektiv omillar, metakognitiv xabardorlik va individual farqlar kabi psixolingvistik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvodidaktik omillar – tilning tuzilishi, turli janrlar, o‘qitish tamoyillari va strategiyalari – yozuvning shakliy va mazmuniy jihatlarini belgilasa, psixolingvistik omillar – kognitiv jarayonlar, tilni qayta

[6] Brown, H.D. Principles of language learning and teaching. Pearson Longman, 2007. – 410 p.; Bello, T. Writing topics for adult ESL students. The 31st Annual Teachers of English to Speakers of Other Language Convention, 1997. – 1-12 p.


[7] Tarigan, H.G. Writing as a language skill. Space Publisher, 2008. – 208 p.

[8] Nunan, D. Second language teaching & learning. Heinle & Heinle, 1999. – 304 p.

[9] Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasi: chet tillari oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik.: O’qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi – Toshkent, 2012. – B. 432.

ishlash mexanizmlari, motivatsiya va metakognitiv xabardorlik – yozuv jarayonining samaradorligi va sifatiga ta’sir qiladi. Shu bois, ushbu omillar o‘rtasidagi sinergetik ta’sirni inobatga olgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni yuqori sifatli yozuv kompetensiyasini shakllantirishni ta’minlaydi. Zamonaviy xorijiy til o‘qitish metodikasida yozuv kompetensiyasini rivojlantirish oliy ta’limning muhim vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun yozuv kompetensiyasini o‘qitish jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularga nafaqat ingliz tilida yuqori darajada yozish, balki yozuvni o‘qitish metodikasi, turli yosh va darajadagi o‘rganuvchilar uchun yozma topshiriqlarni loyihalash, lingvistik va diskursiv xatolarni tahlil qilish hamda tuzatish ko‘nikmalari talab etiladi. D.Agzamova samarali xorijiy til o‘qitish uch maqsadga – amaliy, tarbiyaviy va madaniy – yo‘naltirilgan bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi[10]. L.Flover va J.Hayes yozuvni murakkab kognitiv jarayon sifatida ta’riflab, uni rejalashtirish, matn yaratish va tahrirlash bosqichlaridan iborat ekanligini asoslaydi[11].

Quyida yozuv kompetensiyasini o‘qitishning asosiy metodik omillari – o‘quv materiallari, baholash, fikr-mulohaza (feedback), mustaqil vazifalar va o‘zaro ta’sir shakllari – ularning o‘zaro uyg‘unligi tasvirlangan. Mazkur omillar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yozuv kompetensiyasini samarali shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv materiallarining autentikligi va janr xilma-xilligi, baholash me’zonlarining aniqligi, konstruktiv fikr-mulohazaning o‘z vaqtida berilishi, mustaqil ta’lim vazifalarining izchilligi hamda turli o‘zaro ta’sir shakllari (o‘qituvchi-talaba, talabalar o‘rtasidagi, hamkorlikka asoslangan) talabalarning yozuv kompetensiyalarini takomillashtirishda kompleks yondashuvni ta’minlaydi (1-rasmga qarang):




1-rasm. Yozuv kompetensiyasini o‘qitishning asosiy metodik omillari

Zamonaviy kommunikatsiya muhiti matn, tasvir, audio, video va interfaol elementlarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan multimodal kompozitsiyani talab etmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy media lentalari, veb-saytlar, onlayn ta’lim

[10] Agzamova D. B. English teaching methodology. Manual. O‘quv qo‘llanma. – T.: Barkamol fayz mediya nashriyoti, 2016. – 162 bet.
[11] Hyland, K. Teaching and researching writing. Pearson Education, 2002. – 224 p.; Flower, L.S., & Hayes, J.R. A cognitive process theory of writing. College Composition and Communication, 1981. – 387 p.


platformalari va raqamli taqdimotlarning aksariyati bir nechta rejimlarning integratsiyasi asosida qurilgan. Bu esa ma’no yaratish jarayonida turli kommunikativ rejimlarning ongli ravishda qo‘llanilishini – ya’ni multimodal kompozitsiya integratsiyasini tushunish va undan foydalanishni yozuv kompetensiyasining ajralmas qismiga aylantirmoqda.“Multimodal” atamasi “bir nechta rejim” ma’nosini ifodalab, tadqiqotimiz doirasida insho, esse shaklida yozilgan g‘oyani boshqa formatga o‘zgartirish jarayonini anglatadi. Multimodal kompozitsiya integratsiyasi deganda matn, tasvir, audio, video va interfaol elementlarning o‘zaro bog‘langan holda ma’no yaratish jarayoni tushuniladi. Nyu-London guruhi tomonidan beshta asosiy rejim taqdim etilgan bo‘lib, ular lingvistik rejim – til bilan bog‘liq (yozma va og‘zaki), vizual rejim – ko‘rish orqali qabul qilinadigan elementlar (fotosuratlar, grafikalar), fazoviy rejim – obyektlarning makondagi joylashuvi, imo-ishoraviy rejim – tana harakatlari, mimika va aural rejim – ovoz, musiqa, tovush effektlaridir[12]. Multimodal kompozitsiyani tashkil etuvchi asosiy resurslar – rejimlar quyidagi rasmda aks ettirilgan (2-rasmga qarang):



2-rasm. Multimodal kompozitsiyani tashkil etuvchi asosiy resurslar – rejimlar

[12] New London Group. A pedagogy of multiliteracies: Designing social futures. Harvard Educational Review, 1996. – 60-93 p.

G.Kress va T.Van Leeuven tomonidan asos solingan multimodal nazariya kommunikatsiya bir nechta rejimlar yordamida amalga oshirilishini va har bir rejim o‘ziga xos xususiyatlar, afzalliklar va cheklovlarga ega ekanligini ta’kidlaydi[13]. M.Halliday tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy semiotika esa ma’noning nafaqat til orqali, balki ijtimoiy va madaniy amaliyotlarga singdirilgan turli semiotik resurslar orqali ham shakllanishini ko‘rsatadi[14]. Amaldagi mustaqil ta’lim topshiriqlari bilan taklif etilayotgan multimodal topshiriqlar o‘rtasidagi asosiy farqli jihatlar quyidagi rasmda qiyosiy tahlil qilingan (3-rasm va 1-jadvalga qarang):



3-rasm. Amaldagi mustaqil ta’lim va taklif etilayotgan multimodal topshiriqlar

1-jadval

Amaldagi mustaqil ta’lim va taklif etilayotgan multimodal topshiriqlar farqi

AMALDAGI MUSTAQIL TA’LIM VA TAKLIF ETILAYOTGAN MULTIMODAL TOPSHIRIQLAR FARQI	
Esse yoziladi va PPTga joylashtiriladi	Esse asosida ssenariy yoziladi va videoga aylantiriladi
Faqat xulosa paragrafi yoziladi	To‘liq esse + vizual infografika yaratiladi
Fikr yozma ifodalanadi	Fikr ovoz, musiqa, ohang orqali ifodalanadi
Muammo matn orqali tasvirlanadi	Muammo fotosurat orqali ko‘rsatiladi
PPT – matn asosida, statik	5 rejim uyg‘unligi, interfaol, dinamik

Ikkinchi bob **“Multimodal kompozitsiya ta’lim texnologiyasining pedagogik aspektlari hamda integratsiyalashuvidan foydalanish asoslari”** deb nomlangan. Tadqiqot doirasida Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, Navoiy davlat pedagogika instituti va Samarqand davlat chet tillar institutlarida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotda jami 266 nafar


[13] Kress G. Multimodality: Challenges to thinking about language. TESOL Quarterly, 2000. – 337-340 p.; Kress G., & van Leeuwen, T. Multimodal discourse: The modes and media of contemporary communication. Arnold, 2001. – 184 p.; Lemke J.L. Travels in hypermodality. Visual Communication, 2002. – 299-325 p.

[14] Halliday M.A.K. Language as social semiotic: The social interpretation of language and meaning. Edward Arnold, 1978. – 256 p.

(133 nafar nazorat, 133 nafar tajriba guruhida) Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Jizzax filiali: 90 nafar (nazorat: 45, tajriba: 45), Navoiy davlat pedagogika instituti: 88 nafar (nazorat: 44, tajriba: 44), Samarqand davlat chet tillar instituti: 88 nafar (nazorat: 44, tajriba: 44) ikkinchi kurs talabasi ishtirok etdi.

Tadqiqot davomida barcha 266 nafar talabaning yozma ishlari umumiy tahlildan o‘tkazildi hamda 133 nafar nazorat guruhi talabalarining yozma ishlari o‘quv dasturi doirasidagi topshiriqlar asosida baholandi. Har bir OTMning nazorat guruhidan 15 nafardan (jami 45 nafar) talabaning esselari batafsil tahlil qilindi va CEFR xalqaro tizimining A1-C2 bilim darajasida ko‘zda tutilgan mezonlar asosida baholandi. Har bir OTMda 6 soatdan (jami 18 soat) nazorat guruhi darslari kuzatildi. Barcha 266 nafar talaba o‘rtasida yozuv kompetensiyasiga oid motivatsiya, o‘z-o‘zini baholash va qiyinchiliklar bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi.

Nazorat guruhlarida amaliy mashg‘ulotlarning qiyosiy samaradorlik tahlili natijasida bir qator muhim muammolar aniqlandi. Xususan, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi nomutanosiblik, mustaqil yozish uchun metodik ta’minotning yetarli emasligi, o‘zaro baholash va refleksiya jarayonining yo‘lga qo‘yilmaganligi, multimodal kompozitsiya integratsiyasining yetishmasligi kabi muammolar yozuv kompetensiyasini rivojlantirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu muammolarni hal etish maqsadida multimodal kompozitsiya integratsiyasi bo‘yicha talabalarni o‘qitishda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llaniladi (4-rasmga qarang):



4-rasm. Multimodal kompozitsiya o‘qitishning metodlari

Multimodal nazariyaga asoslangan ta’lim – G.Kress va K.Jevit tadqiqotlari asosida rejimlar, semiotika, intermodallik tushunchalari o‘rgatiladi[15].

[15] Kress G. Multimodality: Challenges to thinking about language. TESOL Quarterly, 2000. – 337-340 p.; Jewitt C. Multimodality and literacy in school classrooms. Review of Research in Education, 32(1). 2008. – 241-267 p.; Jewitt C. Multimodality and literacy in school classrooms. Review of Research in Education, 32(1). 2008. – 241-267 p.

Loyiha asosidagi o‘qitish (PBL) – talabalarni faol o‘rganuvchilarga aylantirib, ularga muayyan mavzu bo‘yicha tadqiqot o‘tkazish, axborot to‘plash, uni sintez qilish va turli rejimlar orqali ifoda etish vazifasini topshirishga asoslanadi[16]. Hamkorlikda o‘qitish – talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, hamkorlikda multimodal loyihalar yaratadilar[17]. Texnologiyalarni integratsiya qilish – Canva, Piktochart, Adobe Premiere, CapCut kabi dasturlardan foydalanish[18]. Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash – talabalarning metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish[19]. Tanqidiy tahlil va qayta yaratish – mavjud multimodal kontentni tahlil qilish va qayta yaratish[20]. Tadqiqot davomida 1-5 ballik shkala asosidagi baholash me’zonlari ishlab chiqildi (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Multimodal kompozitsiyalarni baholash me’zonlari (5 ballik tizim)

Baholash me’zonlar	**5 (A’lo)**	**4 (Yaxshi)**	**3 (Qoniqarli)**	**2 (Qoniqarsiz)**	**1 (Yomon)**
Mazmun va fikrlar	Asar boy tafsilotli, rasm bilan uzviy bog‘langan, chuqur tahlil mavjud.	Mazmun aniq, rasmga mos, tahlil mavjud.	Mazmun rasmga nisbatan soddalashtirilgan, tahlil yetarli emas.	Mazmun va rasm o‘rtasida bog‘lanish sust.	Mazmun rasmga aloqador emas yoki juda noaniq.
Ijodiylik va originallik	Kompozitsiya da yangi, g‘ayrioddiy fikrlar, rasmni noan’anaviy talqin qilish	Ijodiy yondashuv mavjud, biroz original fikrlar.	Ijodiy harakatlar bor, lekin an’anaviy talqin.	Kam ijodiy yondashuv, fikrlar oddiy	Ijodiy emas, aynan rasmga bog‘liq emas.
Til va uslub	Murakkab va rangli til, grammatik jihatdan mukammal, jozibali uslub.	Til aniq, grammatik xatolar minimal, yaxshi uslub.	Oddiy til, ba’zi grammatik xatolar, uslub sust.	Ko‘p grammatik xatolar, noaniq uslub.	Jiddiy til xatolari, tushunarsiz uslub.
Matnli bog‘lanish	Vizual elementlar (izohlar, chizmalar) matnni mukammal qo‘llab-quvvatlaydi.	Vizual elementlar matn bilan bog‘langan, biroz rivojlanishi kerak.	Vizual elementlar bor, lekin matn bilan bog‘lanishi sust.	Vizual elementlar kam yoki matn bilan bog‘lanmagan.	Vizual elementlar deyarli yo‘q yoki ahamiyatsiz.
Tartib va mantiqiylik	Ish yaxshi tuzilgan, tushunarli ketma-ketlik, uzluksiz o‘tishlar.	Asosan mantiqiy tuzilish, ozgina tuzilish kamchiliklari.	Tuzilishi qisman mantiqiy, ayrim qismlar chalkash	Tartibsizlik, mantiqiy bog‘lanishlar sust.	Juda noaniq va tartibsiz tuzilish.

[16] Mergendoller J. R. & Larmer J. Gold standard PBL: Essential project design elements. Educational Leadership, 72(1). 2015. – 33 p.


[17] Lund A. & Smordal O. Is there a space for the teacher in a wiki? Proceedings of the 2006 International Symposium on Wikis. 2006.–37-46 p.

[18] Kress G. Multimodality: A social semiotic approach to contemporary communication. Routledge, 2010. – 232 p.

[19] Smith P. & Williams T. The role of video in enhancing student reflection. Technology in Education, 2019. – 121-136 p.


[20] Jewitt C. Multimodality and literacy in school classrooms. Review of Research in Education, 32(1). 2008. – 241-267 p.

Quyida multimodal kompozitsiya integratsiyasi metodi asosidagi mashq va vazifalarning beshta asosiy afzalligi bosqichma-bosqich aks ettirilgan. Dastlabki bosqichda turli auditoriyaga moslashuvchanlik xususiyati namoyon bo‘lib, talabalarning turli o‘quv uslublari va ehtiyojlariga moslashish imkoniyati ta’minlanadi. Keyingi bosqichda tushunishni kuchaytirish xususiyati orqali multimodal kompozitsiya integratsiyasi axborotni bir nechta rejim (matn, vizual, video, infografika, audio) orqali taqdim etib, kognitiv yukni kamaytiradi va ma’lumotni o‘zlashtirishni osonlashtiradi. Yuqori bosqichda turli xil ko‘nikmalarni rivojlantirish – an’anaviy yozuvdan tashqari, vizual savodxonlik, raqamli savodxonlik va media savodxonlik kabi ko‘nikmalari shakllantiriladi. Navbatdagi bosqichda inklyuzivlik xususiyati – yozuvda qiynaladigan talabalarga ham o‘z fikrlarini turli rejimlar orqali ifodalash imkoniyati yaratiladi va eng yuqori bosqichda esa qiziqishni oshirish xususiyati – o‘quv jarayonini interfaol va qiziqarli qilish orqali talabalarning o‘rganish motivatsiyasini kuchaytirish ifodalangan (5-rasmga qarang):



5-rasm. Yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda multimodal kompozitsiya integratsiyasi metodi mashq va vazifalari afzalliklari

Ushbu afzalliklar asosida “3Ts+Reflection” bosqichli modeli ishlab chiqildi (6-rasm va 3-jadvalga qarang):



6-rasm. Modelning dinamik bog‘lanishi

3-jadval

3Ts+Reflection bosqichli modelning mashq va vazifalar tasnifi

Modelning bosqichi	Modelning maqsadi	Modelning mashq va vazifalar
1. Tayyorlov bosqichi (An'anaviy mashqlar) T1 (1-hafta)	Berilgan mavzu bo‘yicha asosiy bilim va terminlarni o‘zlashtirish	Masalan, “Problem and solution” inshosi tushunchasi va yozish strukturasi haqida ma’lumot olish; - Kalit so‘zlar bilan ishlash; - Grammatik mashqlar bajarish (fe’l zamonlari) - Matn tahlili va so‘z boyligini interfaol o‘yinlar va har xil pedtexnologiyalar yordamida oshirish; - 10-12 gapdan iborat qisqa yozuvlarni bajarish va boshqalar.
2.Takomillashtirish bosqichi (Multimodal integratsiya) T2 (2-hafta)	Insho yozishdan oldin multimodal kompozitsiya integratsiyasidan, ya’ni, tasvirlar, audio, video, interaktiv elementlardan foydalangan tadqiqot qilish va vizual materiallar yaratish	- Vlog yaratish (tadqiqot, suratga olish, intervyu); -Video loyihalar, infografikalar yaratish; - Statistik diagrammalar tuzish; - Audio fragmentlar yaratish va boshqalar.
3.Tahlil bosqich (Insho yozish) T3 (3-hafta)	O‘zlashtirilgan bilimlarni yozma shaklda ifodalash	- Tayyorlov bosqichida o‘rganilgan insho strukturasi, kalit so‘zlar va boshqalardan foydalanib insho (kirish, asosiy qism, xulosa)yozish; - Tayyorgarlik bosqichi (multimodal kompozitsiya integratsiyasi) ma’lumotlaridan foydalanish;
4. Reflection (o‘z-o‘zini baholash) (3-hafta)	Yozuvni tanqidiy tahlil qilish va takomillashtirish	-Baholash me’zonlar yordamida o‘z ishini baholash; - Xatolarni tuzatish, yaxshiroq variantlar taklif qilish; -“Peer review” (hamkasblar bilan baham ko‘rish);

Modelning lingvodidaktik, psixolingvistik va metodik jihatlari quyidagi jadvalga batafsil yoritilgan (4-jadvalda qarang):

4-jadval

“3Ts + Reflection” Modelining lingvodidaktik, psixolingvistik va metodik jihatlarning solishtirmasi

Model bosqichi	Modelning lingvodidaktik jihatlari	Modelning psixolingvistik jihatlari	Modelning metodik jihatlari	Namunalar
1. Tayyorlov bosqichi (T1)	- Mavzuga oid terminlarni o‘zlashtirish - Grammatik qoidalarni mustahkamlash - So‘z boyligini oshirish	- Diqqatni mavzuga qaratish - Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish - Asosiy tushunchalarni tahlil qilish	- An’anaviy usullar (grammatik mashqlar, so‘z yodlash) - Qisqa matnlar yozish - Insho tuzish	- Atrof-muhit mavzusida terminlar yodlash - Gap tuzish mashqlari
2.Takomillashtirish (Multimodal integratsiya) (T2)	- Matn, audio va videolarni integratsiyalash - Turli formatdagi materiallardan foydalanish	- Kreativlikni oshirish - Vizual va eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish - Mavzuni turli xil jihatdan tahlil qilish	- CLIL (Content and Language Integrated Learning) - Amaliy tadqiqot usullari - Loyihali ishlar -Hamkorlikda ishlash	- Plastik chiqindilar haqida video tayyorlash - Statistik ma’lumotlarni infografikada taqdim etish
3. Tahlil bosqichi (Insho yozish) (T3)	- Mantiqiy tuzilgan insho yozish - Argumentlar va dalillarni ishlatish - Xulosalarni asoslash	- Tanqidiy tahlil qilish - Fikrlashni tartibga solish - Turli nuqtayi nazarlarni muvozanatlashtirish	- Konstruktiv feedback berish - Yozuv mahoratini takomillashtirish - Tahliliy baholash usullari	- “Ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri” mavzusida insho
4.Reflection (O‘z-o‘zini Baholash)	- Xatolarni tuzatish - Yozuv uslubini takomillashtirish	- Metakognitiv baholash (o‘z bilim darajasini tushunish) - Mustaqil fikrlashni rivojlantirish	- Mustaqil o‘rganish strategiyalari - O‘z ishini qayta ko‘rib chiqish	-Inshoni qayta tahlil qilish va takomillashtirish - Feedback asosida yangi versiya yozish

Taklif etilayotgan “3Ts+Reflection” modelida tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmi besh komponentli kognitiv-transformativ yondashuvga asoslanadi. Mazkur mexanizm talabalarning metakognitiv faoliyatini bosqichma-bosqich faollashtirish, multimodal resurslar orqali tahliliy-amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va refleksiv baholash jarayonida tanqidiy tafakkurni mustahkamlash tamoyillariga tayanadi.

Modelning umumiy koʻrinishini ushbu chizma orqali izohlashga harakat qilamiz (7-rasmga qarang):

